



## MAKTABGACHA TA'LIMDA O'YIN FAOLIYATINING METODOLOGIK ASOSLARI

Sadikova Zinnura

FarDU magistrant

Urinova Feruza Uljayevna

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha yoshdagagi bolalar bilan o'yin faoliyatini qo'llash jarayoni tarbiyada ulkan ahamiyat kasb etishini ilgar surib, bu bo'yicha bir nechta metod va tavsiyalarni ilgari suradi. Bu jarayon orqali bolada shakllanishi mumkin bo'lgan sifatlarni izohlaydi.

**Kalit so`zlar:** Maktabgacha ta'lism, o'yin faoliyati, ijodiy qobiliyatlar, tasavvur.

Ko'pchilik ta'lism va tarbiyani bitta tushuncha deb hisoblasa-da, ular turlichama'nolarni anglatadi.

Albatta, shu o'rinda tarbiya ta'limgan ko'ra ancha yuqorida turadi.

Maktabgacha ta'lism jarayoni esa ta'lism maskani emas, aynan tarbiya maskani hisoblanadi. Shuning uchun ham ko'pchilik tarbiyachi va maktabgacha ta'lism murabbiylari bolalarga tarbiya fundamentini singdirishga harakat qiladi. Bu esa hali juda kichik bolalar uchun anchagina mehnatni talab etadi. Eng avvalo, ushbu jarayon qiziqarli bo'lishi shart. Bu uchun esa maktabgacha ta'lism muassasa hodimlari o'yin faoliyatiga yuzlanishadi.

O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. O'yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin. Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham



rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o‘yiniga qiziqishini, tashqilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatidan boy o‘yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o‘yinlarini rivojlantirish uchun esa o‘z navbatida yaxshi tashkil etilgan bolalar jamoasi zarur bo‘ladi. O‘yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, MTMning ta’lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomonlama tarbiyalashda katta o‘rin tutadi. O‘yinda bola organizmiga xos bo‘lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faoliyk ortadi, bardamlik, tetiklik, guvnoqlik tarbiyalanadi.

Aynan o‘yin faoliyatida bolada juda ko‘p xarakter va ijobjiy jihatlar shakllanadi. Ayniqsa, ham milliylik, ham zamonaviylikni o‘z ichiga qamrab olgan «Chillak», «Oq suyak», «Soqqa», «Besh tosh», «Kurash», «Tortishmachoq», «Bo’ron», «Mindi», «Berkinmachoq», «Quvlashmachoq», «Arqon tortish» kabi o‘yinlar orqali murg’ak bolalarda

- botirlik
- epchillilik
- tezkorlik
- muvozan’atni saqlash

• qaddi-qomatni shakllantirish kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirishda juda samarali rol o‘ynaydi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida milliy harakatli o‘yinlar orqali bolalarni mashq qildirish quyidagi ijobjiy aqliy sifatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir.

- odob-axloq
- topqirlik
- ong osti rivoji
- xotira

• diqqatning rivojlanishi kabi xislatlarni sayqal toptirishda va albatta sog’lijni mustahkamlashda samarali vosita bo’lib kelmoqda.

Biroq, o‘yinni shunchaki o‘ynash yaramaydi. Ularning metodologik asoslari faoliyatda aniq va ravshan aks etishi zarur.



O'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishning o'ziga xos tomonlari mavjud. Shuning uchun ham, o'yinning nozik tomonlarini bilishning ahamiyati kattadir.

Chunki o'yin faoliyati shunchaki bolalarni sog'lomlashtirishga qaratilgan emas, ular yosh avlodga mukammal tarbiya berish jarayoni bilan ham bog'liqdir, shuning uchun ham xalq o'yinlarini o'tkazish jarayonini tartib bilan o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Avvalo, harakatli o'yinlarini tashkillashning o'z me'zoni bo'lib, ular quyidagichadir.

- O'yinni boshlash uchun qur'a tashlash
- O'yin qoidalari bilan bolalarni tanishtirish
- G'olib bo'lgan guruhni rag'batlantirish
- O'yinni o'z qoidalari asosida, yaxshi kayfiyat bilan yakunlash.

Ko'pincha, o'yin bolalarga yangi bilim berishga emas, fikr doirasini kengaytirish uchun hizmat qiladi. Ijodiy o'yinni tor didaktik maqsadlarga bo'ysindirib bo'lmaydi, bu o'yin yordamida juda katta vazifalar hal qilinadi. Qoidalari o'yin bolaning sensor rivojlanishini, taffakkur va nutqini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi. Har bir qoidalari o'yin ma'lum didaktik maqsadga ega bo'lib, bolani umumiyl rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Bu ta'lim-tarbiya butunlay o'yin shaklida bo'lishi kerak degan gap emas. Ta'lim-tarbiya turli usullar va metodlarni qo'llashni talab etadi. O'yin ta'lim-tarbiyaning shakllaridan biri bo'lib, boshqa bir metod bilan qo'shib olib boorish har bir tarbiyachining o'z qo'lidadir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014, 60 b.
2. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. (2021). Development and education of preschool children. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 326-329.
3. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. DOI: 10.5958/2249-7137.2021. 00358. X “Development and education of preschool children” ACADEMICIA. An



International Multidisciplinary Research Journal.(Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal). ISSN, 2249-7137.

4. O'rınova, F. (2019). REPORT ON PROBLEMS IN THE PRE-SCHOOLS OF ORGANIZATIONAL PREVENTIVE CENTERS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(11), 311-315.
5. Oljayevna, O., & Shavkatovna, S. (2020). The Development of Logical Thinking of Primary School Students in Mathematics. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(2), 235-239.

